

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN SERVIS XIZMATLARINING IMKONIYATLARI

Axrarov Baxtiyor Sagdullayevich, PhD
O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti
E-mail: bakhtiyorsagdullaevich@uzswlu.uz

Annotatsiya. Hozirgi vaqtda xorijiy tillarini sun'iy intellektga asoslangan servis xizmatlar va ilovalardan foydalangan holda o'qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada talabalarning xorijiy tilni amaliy bilish, ya'ni o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalash, so'zlashish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun sun'iy intellektga asoslangan ELSA Speak, Gliglish va Lingolette ilovalarning funksional imkoniyatlari tahlil qilinib, ulardan xorijiy tillarini o'qitishda foydalanish ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, sun'iy intellektga asoslangan servis xizmatlar va ilovalar, xorijiy tilni o'qitish, nutq faoliyati, dialogik nutq, nutq ko'nikmalari va qobiliyatlari.

Abstract. Teaching foreign languages using artificial intelligence-based services and applications is becoming increasingly important. This article analyzes the capabilities of AI-based applications such as ELSA Speak, Gliglish, and Lingolette for developing students' practical knowledge of a foreign language—that is, their ability to clearly and accurately express themselves, as well as their oral communication skills—and substantiates their potential for use in foreign language teaching.

Keywords: artificial intelligence, services and applications based on artificial intelligence, teaching foreign languages, speech activity, dialogical speech, speech skills and abilities.

Аннотация. В настоящее время преподавание иностранных языков с использованием сервисов и приложений на основе искусственного интеллекта приобретает все большее значение. В статье анализируются функциональные возможности приложений основанных на технологию искусственного интеллекта ELSA Speak, Gliglish и Lingolette для развития у студентов практических знаний иностранного языка, то есть их способности четко и правильно выражать свои мысли, а также навыков устной речи, и обосновывается возможность их использования в преподавании иностранных языков.

Ключевые слова: искусственный интеллект, сервисы и приложения на основе искусственного интеллекта, преподавание иностранных языков, речевая деятельность, диалогическая речь, речевые навыки и умения.

Xorijiy tilni o'qitishning asosiy maqsadi talabalarda o'rganilayotgan ona tili bo'lmagan tilda shaxslararo va madaniyatlararo muloqotning turli ijtimoiy jihatdan aniqlangan vaziyatlarida tilni amaliy bilish, ya'ni o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalash, shuningdek, suhbatdoshning fikrini tushunish, shaxslararo va madaniyatlararo o'zaro munosabatni amalga oshirish qobiliyati va tayyorligini ifodalovchi xorijiy til kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdan iboratdir. Buning natijasida talaba xorijiy til nutqini yetarlicha idrok eta olishi va so'zlasha olishi, ya'ni madaniyatlararo muloqotning to'laqonli ishtirokchisi bo'lishi uchun sharoit yaratiladi.

Kommunikativ kompetensiya muvaffaqiyatli muloqotni nazarda tutadi, bunda dialogik nutq asosiy rol o'ynaydi. Nutq faoliyatining gapirish (muloqot va monolog), tinglash, o'qish va yozish kabi to'rt turini birgalikda o'rgatish ta'lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biriga aylanadi. Bunda gapirish va tinglash markaziy o'rinni egallaydi. Ular bitta jarayonning o'zaro bog'liq jihatlari bo'lib, gapirish yetakchi, faol jarayon, tinglash esa ikkinchi darajali, passiv hisoblanadi. Shunga qaramay, ular bir-birlari tufayli mavjud va faoliyat yuritadi [1].

L.S. Vygotskiyning fikriga ko'ra, muloqotli nutq kommunikativ xususiyatga ega, faoliyat motivlari ta'sirida bo'lgan va jonli, tabiiy muloqotda namoyon bo'ladigan muhim lingvistik funksiyadir [2]. Shu munosabat bilan, talabaning o'z fikrini shakllantirish va bayon etish qobiliyati, shuningdek, kommunikativ jarayonning mavzusi, maqsadi va vazifalarini ko'rib chiqish va nutq orqali natijalarga erishish qobiliyati xorijiy tilni o'qitish doirasida kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishda asosiy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash mumkin [3]. Biroq, an'anaviy xorijiy til darslari kontekstida idrok va samarali nutq ko'nikmalari va qobiliyatlarini mashq qilish imkoniyati ko'pincha cheklangan. Shuning uchun talabalar kommunikativ faoliyatni amalga oshirishda bir qator qiyinchiliklarga duch keladilar:

- talaba unga yo'naltirilgan ma'lumotni tushunmaydi va javob bera olmaydi;
- talaba unga yo'naltirilgan ma'lumotni tushunadi, lekin javob berish uchun yetarli so'z boyligiga ega emas;
- talaba ma'lumotni noto'g'ri qabul qiladi, va bu uning javobiga ta'sir qiladi;
- talaba xato qilishdan qo'rqadi va javobining to'g'riligiga ishonch hosil qilmaydi, shuning uchun u jim turishni yoki boshqalardan yordam kutishni ma'qul ko'radi;
- talaba andisha qiladi va psixologik to'siqni yengib o'ta olmaydi va xorijiy tilda gapira olmaydi va hokazo.

Shu munosabat bilan talabalarning nutqiy muloqot ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish zarurati tug'iladi va ushbu vazifalarni bajarish imkoniyatlaridan biri sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalardan foydalanishdir.

Ta'lim tizimining hozirgi rivojlanish bosqichi ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish va raqamlashtirish bilan tavsiflanadi. Xorijiy tillarini o'qitishni o'z ichiga olgan an'anaviy o'quv jarayonlariga yangi texnologik vositalar integratsiya qilinmoqda. Mashinali o'qitish va tabiiy tillarni qayta ishlash kabi sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi talabalarining xorij tilda so'zlashish amaliyotini diversifikatsiya qilish imkonini beruvchi xizmatlar va ilovalarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Xorijiy tillarini o'rganishda talabalarning muloqot va nutq ko'nikmalarini rivojlantirish sun'iy intellektga asoslangan servis xizmatlari va ilovalarining turli xil gaplarga javob berib, inson nutq xatti-harakatlarini taqlid qilish qobiliyati bilan belgilanadi. Ushbu xizmatlar va ilovalar talabalarga talaffuz, lug'at, grammatika va hatto suhbatlashish amaliyotida yordam berishi mumkin. Interaktiv ovozni aniqlash texnologiyasidan foydalangan holda, sun'iy intellekt ma'ruzachining nutq modellarini tahlil qiladi va tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etadi, fonetik, grammatik va leksik xatolarni tuzatadi hamda mos javoblarni taklif qiladi.

Salomlashishdan tortib, ishchanlik suhbatlari, telefon qo'ng'iroqlariga javob berish va boshqa murakkabroq bo'lgan turli mavzulardagi suhbatlarni osongina qo'llab-quvvatlaydigan sun'iy intellektga asoslangan servis xizmatlar talabalarga real hayotdagi

o'zaro munosabatlarni qiziqarli va interaktiv usulda mashq qilishga va xorijiy tildan foydalanishga bo'lgan ishonchlarini oshirishga yordam beradi.

So'nggi yillarda xorijiy tillarni o'rganish uchun ko'plab sun'iy intellektga asoslangan servis xizmatlar va ilovalar paydo bo'ldi. Maqolada ingliz tilida muloqot ko'nikmalarini oshirish bo'yicha eng qiziqarli va o'xshash funksiyalarga ega bo'lgan ELSA Speak, Gliglish va Lingolette kabi ilovalar metodologik nuqtai nazardan tahlil qilamiz.

ELSA Speak (*English Language Speech Assistant* - Ingliz tili nutqi yordamchisi) - bu ingliz tilining fonetik jihatlariga e'tibor qaratadigan, talabalarga talaffuz, nutq qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradigan onlayn ingliz tilini o'rganish ilovasi [4]. Ilova talaffuzning barcha jihatlarini chuqur tahlil qiladigan va so'z boyligini tanlash va talaffuz tuzilishini muvofiqlashtiradigan sun'iy intellektning nutqni aniqlash texnologiyasidan foydalanadi. Nutqni tanib olish texnologiyasining ma'lumotlar bazasi turli xil urg'ularga ega ingliz tilida so'zlashuvchilarning ovoqli ma'lumotlari yordamida ishlab chiqilgan. Ushbu ilova ona tili bo'lmagan xorijiy tilda talaffuz xususiyatlarini aniqlash va ulardagi muammolarni bartaraf etishda yordam berish imkonini beradi. Ilova talabalarining motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi, natijada ingliz tilini o'rganish uchun ularda yuqori darajadagi qiziqish va diqqat-e'tibor kuchayadi. Bundan tashqari, ELSA Speak ilovasidan foydalanish bo'yicha kengaytirilgan ko'rsatmalar, talabalarining xorijiy tilda so'zlashuvchi nutqini tinglash, nutq mashqlari trenajyori, fikr-mulohaza va nutq amaliyoti taqdim etiladi, ushbu holat esa talabalarni o'z ko'nikma va qobiliyatlarini oshirishga undaydi. Dinamik transkripsiya, matnning asl ma'nosi va mazmunini saqlab qolgan holda uning so'z birikmalarini o'zgartirish va lug'at takliflari ushbu ilovani ingliz tilini o'rganishda yordam beradigan amaliy vositaga aylantiradi.

Gliglish - bu foydalanuvchiga chet tilida o'rganuvchi bilan muloqot orqali nutq qobiliyatlarini mashq qilishga yordam beradigan sun'iy intellektga asoslangan onlayn servis xizmati [5]. Ushbu xizmat quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- virtual o'qituvchi bilan suhbat, bunda talaba chatbotga istalgan savolni berishi mumkin va bu suhbatni qo'llab-quvvatlaydi yoki berilgan muammoni hal qiladi;
- kundalik muloqot simulyatsiyasi, bunda talaba turli ssenariylardan birini tanlashi mumkin: taksi buyurtma qilish, uchrashuv, ishchanlik suhbat, mehmonxonaga joylashish va boshqalar.
- ma'ruzachining nutq tezligiga moslasha oladi;
- grammatika va talaffuz bo'yicha fikr-mulohazalarni taqdim etadi;
- tarjimalar talabaga so'zlar va iboralarning ma'nosini yaxshiroq tushunishga yordam beradi;
- rol o'ynash funksiyasi talabaga real hayotdagi vaziyatlarda mashq qilish imkonini beradi;
- har bir rolli o'yindagi o'rnatilgan maslahatlar talabaga savolga javob berish uchun to'g'ri so'zlar va iboralarni tanlashda yordam beradi.

Ushbu servis xizmatning asosiy maqsadi talabaning nutqqa bo'lgan ishonchini mustahkamlash va uning muloqot qobiliyatlarini mashqlar orqali rivojlantirishdir.

Lingolette xorijiy tillarni o'rganish uchun Rossiyalik mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan sun'iy intellektga asoslangan onlayn servis xizmat ko'rsatuvchi platformadir [6]. Ushbu platformada og'zaki va yozma muloqotni yaxshilash uchun real vaqt rejimida suhbat amaliyoti va individuallashtirilgan o'qitishning turli xil funksiyalari taklif qilinadi. Birinchidan, foydalanuvchilar o'zlari xohlagan til darajasini

tanlashlari mumkin va ilova ularning bilim va qiziqishlariga moslashadi. Ikkinchidan, chatbot funksiyasi oldindan belgilangan vaziyatlarda (mehmonxonaga kirish, supermarketda kassada to'lovlarni amalga oshirish, SIM-karta sotib olish, transport kartasini sotib olish, bank hisobini ochish va boshqalar) rol o'ynash kabi turli mavzularda suhbatlar o'tkazish imkonini beradi. Sun'iy intellekt xizmati foydalanuvchi nutqini tahlil qiladi, xatoliklar bo'yicha fikr-mulohaza bildiradi, agar talaba javob berishda yoki suhbatni davom ettirishda qiynalsa, mumkin bo'lgan javoblarni taklif qiladi va qo'shimcha o'rganish hamda mustahkamlash uchun lug'atga yangi va kam ishlatiladigan so'zlar, iboralarni qo'shadi. Uchinchidan, ushbu ilovaning yana bir afzalligi shundaki, turli mavzulardagi maqolalarni o'qish imkoniyati mavjud bo'lib, sun'iy intellekt matni ovozli ravishda ijro etish va keyin suhbatga kirishish qo'llab-quvvatlanadi. Bundan tashqari, xizmat lug'atga so'z o'yinlari va didaktik flesh-kartalar shaklida qo'shilgan lug'atni mustahkamlash uchun o'yin asosidagi mashqlarni taklif qiladi.

Shunday qilib, xorijiy tillarni o'rganish markazida bir nechta sun'iy intellektga asoslangan xizmatlar va ilovalarni tahlil qilish asosida sun'iy intellektga asoslangan servis xizmatlar va ilovalar talabalarning xorijiy tilda so'zlashish ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yetarli funksiyalarni taklif qiladi degan xulosaga kelish mumkin. Ulardan zamonaviy texnologiyalarning yorqin misoli sifatida xorijiy tillarini o'qitishda samarali foydalanish o'quv jarayonini yanada qiziqarli tashkil etilishini va unga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ламзин С. А. О видах речевой деятельности в обучении иностранным языкам / С. А. Ламзин // Вестник Рязанского государственного университета им. С. А. Есенина. – 2011. – № 33. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-vidah-rechevoy-deyatelnosti-v-obuchenii-inostrannym-yazykam> (дата обращения: 15.10.2024).
2. Выготский Л. С. Мышление и речь / Л. С. Выготский // Собр. соч. : в 6 т. – М., 1983. – Т. 2. – 502 с.
3. Сысоев П. В. Чат-боты в обучении иностранному языку: проблематика современных работ и перспективы предстоящих исследований / П. В. Сысоев, Е. М. Филатов, Д. О. Сорокин // Вестник Московского университета. Серия 19: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2023. – № 3. – С. 46-59. – DOI 10.55959/MSU-2074-1588-19-26-3-3. – EDN MOYJHP.
4. <https://e-student.org/goto/elsa-speak/>
5. <https://gliglish.com/intl/ru>
6. <https://lingolette.com/ru>